



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM TIZIMIGA JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Safarov Abduxakim Uralovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Jizzax mintaqaviy o'quv markazi
"Kasbiy tayyorgarlik" sikli
katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ijobiy va salbiy tomonlari, raqamli texnologiyalarni joriy qilishning huquqiy asoslari, raqamli texnologiyalarini joriy qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad, raqamli texnologiyalarni joriy qilishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari yuzasidan muallif takliflari bayon qilingan.

Аннотация. В статье описаны плюсы и минусы внедрения цифровых технологий в систему образования, нормативно-правовая база внедрения цифровых технологий, основная цель внедрения цифровых технологий, проблемы, возникающие при внедрении цифровых технологий, и способы их решения.

Annotation. The article describes the pros and cons of introducing digital technologies into the education system, the regulatory framework for introducing digital technologies, the main goal of introducing digital technologies, problems arising from the introduction of digital technologies, and ways to solve them.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiya, ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi, muammo, raqamli iqtisodiyot.

Ключевые слова. Цифровые технологии, образование, студент, учитель, проблема, цифровая экономика.

Keywords. Digital technologies, education, student, teacher, problem, digital economy.

Raqamli texnologiyalarni hayotga joriy etish albatta, insonlarning og'irini yengil qilishi tabiiy. Har bir sohada raqamli texnologiyalar katta samaradorlikka erishishning garovi hisoblanadi. Masalan farmasevtika, avtomobilsozlik sanoati, qishloq xo'jaligi, texnika, noshirlik, tadbirkorlik sohalarida ham buni ko'rishimiz mumkin. Shu singari ilmiy sohada va ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish, yuqori samaradorlikka erishishning qulay vositasi hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi



bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lsin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishdan maqsad faqatgina, ta'lim jarayoni osonlashtirish emas balki ta'lim samaradorligini oshirish, yoshlarning bilim salohiyatini yuksaltirish, o'quvchi yoshlarni raqamli iqtisodiyotga qiziqtirish, ularni zamon bilan hamfikir bo'lib ulg'ayishlarini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Buning uchun eng avvalo, raqamli texnologiyalar to'g'risida malakali kadrlarni yetishtirish lozim bo'ladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida, 2020-yil 28-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan maktablar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulash hamda aloqa xizmatlari sifatini oshirishni ko'zda tutgan holda mamlakatning raqamli infratuzilmasini to'liq modernizatsiya qilish va zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlaridan barcha hududlarda foydalanish imkoniyatini ta'minlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, "Besh tashabbus" loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o'qitish markazlarini ochish ko'zda titildi.



IQTIDOR & INTELLEKT

Buning natijasi o'laroq, 2021-yil 1-yanvaridan boshlab fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma'lumotlar bazasi va "bulutli" platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining **50 foizgacha bo'lgan qismini qoplash tizimi** joriy etildi. 2021 yil 1-sentabrga qadar har bir tuman va shaharda mavjud infratuzilma ob'ektlari negizida keng aholi qatlamlari, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun **raqamli texnologiyalar o'quv markazlari** ochilishi belgilandi va bu bugungi kunda ham amalga oshirib kelinmoqda.

2023-yil yakuniga qadar esa, barcha tuman va shaharlarda o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o'rganishi uchun mavjud ta'lim muassasalari negizida **200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar** bosqichma-bosqich tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Ta'lim tizimida hech qachon o'zgarmaydigan asos ustunlar mavjud. Bu "ta'lim oluvchi" va "ta'lim beruvchi" ya'ni "talaba" va "o'qituvchi"dir. Agar ta'limda ana shu ikki tomonning dunyo qarashini o'zgartira olsak, ya'ni talabani mustaqil ta'lim olishga, bilim olish yo'llarni mustaqil izlashga, o'qituvchini esa yangi bilimlar bilan raqamli texnologiyalar asosida qurollantirib talabaga bilim olish yo'llarini o'rgatishini yo'lga qo'ya olsak, ta'lim tizimi qaysi shaklga o'tishidan qat'iy nazar ta'limda sifat paydo bo'ladi. [2]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "COVID-2019" pandemiyasi barcha sohalar singari ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi, jumladan bog'cha, maktab va oliy ta'lim muassasalarining barchasi ommaviy ravishda muddatidan oldin ta'tilga chiqishdi. UNESCOning ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 1,7 milliard o'quvchilar darslar to'xtatilgani sabab an'anaviy o'qishdan mahrum bo'lishdi. Yuzdan ortiq mamlakatlarda universitetlarning yopilishi dunyo talabalarining 90 foizini uyda o'tirishga majbur qildi. UNESCO 13 ta mamlakatda ta'lim muassasalarining vaqtincha yopilishi oqibatida 290,5 million o'quvchi va talaba o'qishdan uzilib qolganini ma'lum qildi va ularni zudlik bilan masofaviy ta'limga o'tishga chaqirdi.[3] Bu esa



mamlakatimiz aholisini masofadan turib ham ta'lim olish mumkinligiga ishonrtirdi va raqamli texnologiyalar to'g'risida tasavvurlar xosil qildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu jihatdan aytish mumkinki, ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, o'qituvchining qog'ozbozlikka vaqt sarflashining oldini olish, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun vaqt orttirish, o'quvchilarni baholashda turli to'siqlar va ta'magirliklarga chek qo'yish, o'quvchilarni mustaqil izlanishga undash, axborot-resurs markazlarida kerakli adabiyotlarni tez va oson qidirib topish, lokal tarmoqli elektron kutubxonalarda esa o'quvchi qanday adabiyotni o'qiyotganligini nazorat qilish, cheksiz adabiyotlardan tez fursatda xabardor bo'lish, O'zbekistonda va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlardan o'z vaqtida habardor bo'lish imkonini beradi.

Ma'lumki raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga internetsiz joriy qilishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli aytish joizki, raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham borligini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Masalan, o'quvchi ta'lim olishi kerak bo'lgan vaqtda, ijtimoiy tarmoqlarda turli xil axloqsiz mazmundagi materiallarni tomosha qilishi, o'qituvchining nazorat profilini bloklab qo'yishi, barcha ota-onalarning ham raqamli texnologiyalar to'g'risida tushunchaga ega emasligi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalana olmaslik, bugungi kunga qadar ko'plab qishloq maktablarida kompyuter texnikasining mavjud emasligi, borlarining ham ancha eskirib, bugungi kun talablariga javob bera olmaydigan xolatga kelib qolganligi, optik tolani tan narhi ancha qimmatligi, kompyuter texnikasining narhi qimmatligi hisobiga barcha ota-onalar va o'quvchilarda ham ularning mavjud emasligi kabi muammolar mavjud.

Xulosa va takliflar. Ta'lim tizimini rivojlantirish, uchinchi Renessans davrini yaratishda raqamli texnologiyalarni nafaqat ta'lim tizimiga, balki barcha sohalarga keng joriy qilish, o'quvchi yoshlarda va ta'lim tizimi xodimlarida ularni amalda qo'llay bilish ko'nikmasini shakllantirish, yuksak axloqiy sifatlarni rivojlantirish



IQTIDOR & INTELLEKT

lozim. Shu o'rinda ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

-olis qishloqlardagi maktablarni kompyuter texnologiyalari bilan yetarli miqdorda ta'minlash;

-aqlli doska va videoproektorlarni sonini ko'paytirish;

-o'quvchilarni IT sohasiga qiziqtirish uchun ko'proq loyihalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

-qishloq maktablariga qadar optik tolali kabellarni yetkazish choralari ko'rish;

-ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy buzuvchi va shavqatsizlikni targ'ib qiluvchi saytlarga ta'qiq qo'yish ishlarini jadallashtirish;

-bepul internet hududlarini ko'paytirish (hozirgi kunda bunday joylar faqatgina AYoQSh, tadbirkorlarning ovqatlanish shahobchalarida va shunga o'xshash joylarda bunday hududlar mavjud);

-ta'lim muassasalarining barchasida xuddi chet tillari singari kirish va bitirish imtixonlariga kompyuter savodxonligi bo'yicha imtixonlar topshirishni joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Omonov Q. Raqamli ta'lim: u nima va bizga nima beradi? 05.04.2020 uza.uz
3. Xashimova D.P. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent sh., 2020-yil 28-aprel, PQ-4699-son
5. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020-yil
6. www.daryo.uz 01.12.2020